

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**III RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

FEVRAL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, fevral

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 3-son (fevral, 2026-yil).– 121 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 12-fevral

Mas'ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Nazirov Sardor

BIR MAVSUMDA BUG'DOY VA PAXTA YETISHTIRISHNI TA'MINLAYDIGAN
ELEKTROTEXNOLOGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI 5-8

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Yodgorov Normumin, Amirqulova Nigora

INDIGOFERANING SUG'ORISH MUDDATLARI VA MEYORLARI 9-12

TARIX FANLARI

Omonova Sarvinoz, Baratova Gulzoda

ABU UBAYDA IBN al-JARROHNING TIBBIYOT TARIXIDAGI O'RNI VA ILMIY MEROSI 13-15

IQTISODIYOT FANLAR

Mengniyozov Anvar

JAHONDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINING EVOLYUTSIYASI 16-20

FALSAFA FANLARI

Nabiyev Sherzodjon

KIBERAGRESSIYA FENOMENI VA YOSHLAR AXLOQIY-MA'NAVIY QADRIYATLARI 21-26

FILOLOGIYA FANLARI

Nasriyev Nurullo

ZAMONAVIY XALQARO AXBOROT BOZORIDA MEDIABIZNES TUSHUNCHASINING
AHAMIYATI 27-28

YURIDIK FANLAR

Xursanov Shamsiddin

XALQARO TIJORAT ARBITRAJIDA SHARIAT OMILI 29-33

PEDAGOGIKA FANLARI

Sodiqova Gulnora

ISH BERUVCHILAR ISHTIROKIDAGI KASBIY TA'LIM DASTURLARINI RAQAMLI
TRANSFORMATSIYA QILISH 34-39

Ganiyev Elyorbek

TALABALARDA QONUNIY BILIMLARNI AMALIYOTGA TADBIQ ETISH METODIKASI 40-45

Xabibullayev Alimardon

TALABALAR MOBILIGINI RIVOJLANTIRISHDA QO'SHMA TA'LIMNING INSTITUTSIONAL
BOSHQARUV MEXANIZMLARI (RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA) 46-51

Nigmatova Nozimaxon

OLIY TA'LIMDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA GENERATIV SUN'IY INTELLEKT
TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATSIYALASH METODIKASINING NAZARIY ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH 52-54

Abdullayeva Asila

TARIXIY VA FALSAFIY BILIMLARNI BIRLASHTIRISH ORQALI OLIY TA'LIMDA
INNOVATSION PEDAGOGIK METODLARNI TATBIQ ETISH 55-60

Ergasheva Nigora

PEDAGOGIK HAMKORLIK ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM
O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING
ILMIY-NAZARIY ASOSLARI 61-64

G'ofurova Barnoxon

OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALARNING KONSEPTUAL FIKRLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA XIZMAT QILUVCHI METODIK SHART-SHAROITLAR 65-68

Shamsiddinova Durdona

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING O'QILGAN MATNNI TUSHUNISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA METAKOGNITIV O'QITISH USULLARINING SAMARADORLIGI 69-71

Yuldasheva Maftuna

PEDAGOGIK KOMMUNIKATSIYA VA PSIXOLOGIK TA'SIR USULLARINI O'RGATISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR 72-77

Butayev Norbek

KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLARNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI 78-80

Rajapov Sulaymon

ESP (ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES) ASOSIDA MULOQOT KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI 81-84

Samandarova Nargiza

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV DOIRASIDA IQTISODCHILARNING KASBIY NUTQ TAYYORGARLIGINI TAKOMILASHTIRISH 85-87

Sobirov Qobuljon

BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ROLI 88-93

Raxmanova Nigora

ZAMONAVIY KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV VA AN'ANAVIY SHOGIRDLIK TIZIMINING UYG'UNLIGI 94-99

Xalberdiyev Ziyodilla

TA'LIM MENEJMENTIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI 100-102

Kamolov Baxtiyor

EKOLOGIK TARBIYA VA TURIZM FANLARI INTEGRATSIYASI ORQALI TALABALAR MADANIY-MA'NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH 103-108

TIBBIYOT FANLARI

Сайдуллаева Мукаддам, Абдукадирова Лазиза

ЛАТИНСКИЕ И ГРЕЧЕСКИЕ ИСТОКИ МЕДИЦИНСКИХ ЭМБЛЕМ И ИХ РОЛЬ В СОВРЕМЕННОЙ МЕДИЦИНЕ 109-115

SIYOSIY FANLAR

Уразбаев Абатбай

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ УЧАСТИЯ ГРАЖДАН В ОБЕСПЕЧЕНИИ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ: ГЛОБАЛЬНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 116-120

OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALARNING KONSEPTUAL FIKRLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA XIZMAT QILUVCHI METODIK SHART-SHAROITLAR

G'ofurova Barnoxon Asadjon qizi

University of Business and Science katta o'qituvchisi, PhD

Email: gofurova343@gmail.com

Tel: +998916723453

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida talabalar konseptual fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik shart-sharoitlar ilmiy asoslanadi. Tadqiqotda konseptual fikrlashning mazmuni, uning kompetensiya sifatida shakllanish omillari hamda didaktik va metodik ta'minotning o'rni tahlil qilinadi. Maqolada talabalarning konseptual fikrlashini rivojlantirishda muammoli ta'lim, integrativ yondashuv, refleksiv faoliyat, loyihaviy ta'lim va interfaol metodlarning samaradorligi yoritilib, ta'lim jarayonini tashkil etishning optimal sharoitlari asoslab beriladi. Taklif etilgan metodik shart-sharoitlar konseptual fikrlash ko'nikmalarini chuqurlashtirish, bilimlarni tizimli umumashtirish va ilmiy tahliliy qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: konseptual fikrlash, kompetensiya, metodik shart-sharoit, oliy ta'lim, muammoli ta'lim, integratsiya, refleksiya, loyihaviy faoliyat.

METHODOLOGICAL CONDITIONS FOR DEVELOPING STUDENTS' CONCEPTUAL THINKING COMPETENCE IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

Gofurova Barnoxon Asadjon qizi

Senior Lecturer, University of Business and Science, PhD

Annotation. This article scientifically substantiates the methodological conditions aimed at developing students' conceptual thinking competence in the higher education system. The study analyzes the content of conceptual thinking, the factors of its formation as a competency, and the role of didactic and methodological support. The article highlights the effectiveness of problem-based learning, integrative approach, reflective activity, project-based learning and interactive methods in developing students' conceptual thinking, and justifies the optimal conditions for organizing the educational process. The proposed methodological conditions serve to deepen conceptual thinking skills, develop the competence of systematic generalization of knowledge and scientific analytical decision-making.

Keywords: conceptual thinking, competence, methodological conditions, higher education, problem-based learning, integration, reflection, project activity.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i3/n14>

Bugungi globallashtirish va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim tizimi oldida nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirgan, balki ularni tahlil qila oladigan, umumashtirish, konseptual modellashtirish hamda murakkab vaziyatlarda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishga qodir mutaxassislarni tayyorlash vazifasi dolzarb bo'lib bormoqda. Zero, zamonaviy ta'lim natijadorligi talabaning axborotni yod olish darajasi bilan emas, balki uni tizimli anglash, konseptual rejalash va muammo yechimiga yo'naltirib qo'llash kompetensiyasi bilan belgilanadi.

Ta'lim psixologiyasi va didaktika bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fikrlash jarayonining yuqori bosqichi sifatida namoyon bo'ladigan konseptual tafakkur talabani bilimlarni mazmunan qayta ishlashi, tushunchalarni o'zaro bog'lash va umumiy nazariy xulosalar chiqarishi bilan xarakterlanadi. Xususan, L.S.Vygotskiy konseptlarning shakllanishini shaxsning ijtimoiy-madaniy tajribasi hamda nutqiy faoliyati bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida izohlagan bo'lsa, J.Bruner ta'lim mazmuni "kashfiyot orqali o'zlashtirish" yo'li bilan talabani intellektual mustaqilligini kuchaytirishini ta'kidlaydi. Bu yondashuvlar talabalarda konseptual fikrlashni rivojlantirish uchun ta'limni faollashtirish, muammoli vaziyat yaratish va refleksiv o'zlashtirish mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini asoslaydi.

Konseptual fikrlash bu shaxsning hodisa va tushunchalarni alohida fakt sifatida emas, balki ularning ichki mohiyati, sabab-oqibat munosabatlari hamda umumiy qonuniyatlar tizimi orqali anglash qobiliyatidir. Bunda talaba o'rganilayotgan bilimlarni kategoriyalar asosida tasniflash, konseptlararo bog'lanishlarni aniqlash, modellar va nazariy izoh berishga intiladi. Shu sababli konseptual fikrlash kompetensiyasini shakllantirish ta'lim mazmunining integrativligi, o'qitish metodlarining ilmiy-tadqiqiy yo'nalganligi, refleksiv yondashuv hamda diagnostik baholash tizimi bilan bevosita bog'liq hisoblanadi.

Konseptual fikrlash kompetensiyasi talabani bilimlarni yuzaki qabul qilishi emas, balki ularni mazmunan anglash, tushunchalar tizimini qurish va bilimlarni ilmiy asosda qayta ishlashga yo'naltirilgan murakkab intellektual faoliyatini ifodalaydi. Bu kompetensiya, avvalo, nazariy tushunchalarni amaliy vaziyatlarga moslashtirish, muammolarni konseptual darajada talqin qilish va yechimlarni modellashtira olish kabi ko'nikmalar bilan belgilanadi.

Ta'limda bilish jarayonlarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga doir yondashuvlarda (xususan, B.Bloom va keyinchalik Anderson Krathwohl taksonomiyasida) yuqori darajadagi kognitiv natijalar tahlil, sintez va baholash kabi operatsiyalar bilan bog'liqligi asoslangan. Mazkur ilmiy qarashlar konseptual fikrlashni rivojlantirish ta'limning yakuniy natijalarini "bilish" doirasidan "tahliliy va konstruktiv fikrlash" darajasiga olib chiqishi zarurligini anglatadi.

Konseptual fikrlash kompetensiyasi tarkibida quyidagi komponentlar alohida ahamiyat kasb etadi:

Kognitiv komponent – talabani tushunchalar bazasi, ilmiy tasavvuri hamda nazariy bilimlar tizimiga ega bo'lishi bilan ifodalanadi. D.P.Ausubelning "mazmunli o'zlashtirish" nazariyasiga ko'ra, yangi bilim avvalgi bilimlar bilan mantiqiy aloqador holda integratsiyalashgandagina mustahkam konseptual tuzilma yuzaga keladi.

Analitik-komparativ komponent – tushunchalarni taqqoslash, farqlash, umumlashtirish va tasniflash orqali ilmiy fikrlashning aniqlik darajasini oshiradi.

Model asosidagi tafakkur komponenti – talabani bilimlarni sxema, jadval, grafik, konseptual xarita kabi ko'rinishlarda strukturaviy ifodalashi, muammoli jarayonni modellashtirib yechimga yo'naltira olishida namoyon bo'ladi.

Refleksiv komponent – shaxsning o'z fikrlash jarayonini tahlil qilishi, natijalarni baholashi va xatolarni tuzatishga qaratilgan ichki nazorat mexanizmlarini ifodalaydi. Bu holat, o'z navbatida, metakognitiv kompetensiyaning shakllanishiga xizmat qiladi.

Ijodiy komponent – mavjud bilimlar asosida yangi g'oya ishlab chiqish, muammoga alternativ yondashuv taklif etish hamda innovatsion yechimlarni ilgari surish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Shunday qilib, konseptual fikrlash kompetensiyasi oddiy bilimlar majmuasi emas, balki talabaning bilimni anglash-qayta ishlash-modellashtirish-xulosa chiqarish bosqichlarini qamrab oluvchi ko'p tarkibli intellektual salohiyatdir.

Talabalarda konseptual fikrlash kompetensiyasining shakllanishi ta'lim jarayonining o'z-o'zidan kechadigan natijasi emas, balki oldindan rejalashtirilgan metodik tizim va maqsadli didaktik sharoitlarni talab etadi. Ta'lim samaradorligi borasida J.Hattie tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda o'qituvchi faoliyatining aniqligi, maqsadlarning ochiqqligi va samarali qayta aloqa mexanizmi ta'lim natijalariga kuchli ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi. Demak, konseptual fikrlashni rivojlantirish uchun metodik shart-sharoitlar tizimli, maqsadli va diagnostik yondashuvga asoslangan bo'lishi lozim.

Konseptual fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda o'quv mazmunini faktlar ketma-ketligi sifatida emas, balki asosiy tushunchalar va konseptlar tizimi tarzida tuzish muhim metodik shart hisoblanadi. Fanlararo integratsiya orqali talaba bilimlar o'rtasidagi bog'lanishlarni anglaydi, bu esa fikrlashning tizimlilik va umumlashtirish darajasini oshiradi.

Metodik jihatdan bunday integratsiya: umumilmiy kategoriyalar (tizim, model, sabab-oqibat, tamoyil) bilan ishlash; nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash; real hayotiy muammolar asosida tushunchalarni qo'llash orqali yanada mustahkamlanadi.

Muammoli ta'lim talabaning fikrlash faoliyatini stimullovchi samarali metodik mexanizm bo'lib, bunda talaba tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki izlanish orqali bilim hosil qiluvchi subyektga aylanadi. J.Dewey ta'lim jarayonini "muammoni anglash va uni hal qilish bosqichlari" bilan bog'liq faoliyat sifatida talqin qilgan. Mazkur yondashuv konseptual fikrlashni rivojlantirishda savol qo'yish, gipoteza ishlab chiqish, dalillash va konseptual xulosa chiqarish kabi intellektual operatsiyalarni faollashtiradi.

Muammoli topshiriqlar talabaning: izlanish strategiyasini shakllantirishiga, tahliliy fikrlashiga, ilmiy asoslangan qaror qabul qilishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Konseptual fikrlashning yetuk shakli refleksiv faoliyat bilan mustahkamlanadi. Refleksiya talabaning o'z fikrini nazorat qilishi, fikrlash algoritmini ongli ravishda anglab borishi va xulosalarini qayta ko'rib chiqishiga xizmat qiladi. Bandura tomonidan asoslangan o'zini boshqarish va o'z-o'zini baholash mexanizmlariga tayangan holda aytish mumkinki, refleksiv muhitda talabaning ichki motivatsiyasi va intellektual mustaqilligi kuchayadi.

Refleksiv muhitni shakllantirish quyidagi vositalar orqali ta'minlanadi:

"Men qanday fikrladim?" tahliliy savoli asosida o'z-o'zini baholash;
muammo yechimining bosqichlarini yozma asoslash;
portfolio va refleksiya kundaligidan foydalanish;
baholash mezonlarining shaffofligi va muntazam qayta aloqa.

Loyihaviy faoliyat talabaning nazariy bilimlarini amaliy muammo bilan bog'lash, maqsad qo'yish, rejalashtirish, resurslarni baholash va natijani asoslab taqdim etish kompetensiyalarini kompleks rivojlantiradi. Bu jarayonda talaba muammoni konseptual ko'ra olish, yechim modelini ishlab chiqish hamda natijani tahlil qilishga o'rganadi. Tadqiqotga yo'naltirilgan topshiriqlar esa ilmiy fikrlash madaniyatini shakllantiradi, ya'ni talabaning dalil-isbot bilan ishlashi, tahliliy tafakkur yuritishi, sabab-oqibat aloqalarini aniqlashga undaydi.

Konseptual fikrlashni rivojlantirishda interfaol metodlar talabaning fikrini ochiq ifodalash, muloqot orqali asoslash va bilimni birgalikda konstruksiya qilishiga imkon yaratadi. Marzano ta'lim samaradorligini oshirishda tahliliy topshiriqlar va fikrlash strategiyalarini

qo'llash muhimligini ko'rsatadi. Shunga ko'ra, konseptual fikrlashni chuqurlashtirishda quyidagi metodlar samarali bo'ladi: "INSERT", "Klaster", "Konseptual xarita (Mind map)", "Fishbone", "Debat", "Keys-stadi" vizual konseptual vositalar bilimni strukturalash, tushunchalararo munosabatlarni ko'rinarli holatga keltirish va o'quv materiali mohiyatini anglashni yengillashtiradi.

Metodik shart-sharoitlarning amaliy natijadorligi bir qator pedagogik omillarning uyg'unligiga bog'liq bo'lib, ular orasida o'qituvchining metodik mahorati va diagnostik yondashuvi yetakchi o'rinni egallaydi. Ayniqsa: o'qituvchining konseptual fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik kompetensiyasi; o'quv jarayonining monitoring va tahlil asosida tashkil etilishi; baholashning kompetensiyaviy mezonlarga asoslanganligi; talabaning ijodiy fikrlashini qo'llab-quvvatlovchi ochiq ta'lim muhiti konseptual fikrlash rivojining barqarorligini ta'minlaydi. Shu asosda konseptual fikrlash kompetensiyasi bosqichma-bosqich shakllanib, talabaning ilmiy-tahliliy faoliyatga tayyorgarligini kuchaytiradi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, oliy ta'lim tizimida talabalarning konseptual fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish ta'lim jarayonini metodik jihatdan puxta loyihalashni hamda maqsadli shart-sharoitlarni yaratishni talab etadi. Ta'lim mazmunini konseptual integratsiyalash, muammoli ta'lim texnologiyalarini qo'llash, refleksiv muhitni shakllantirish, loyihaviy-tadqiqot topshiriqlar tizimini joriy etish hamda interfaol-vizual metodlardan foydalanish konseptual fikrlashni rivojlantirishning ustuvor metodik shartlari sifatida asoslanadi. Mazkur yondashuvlar talabalarda tizimli fikrlash, ilmiy xulosalash va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirib, oliy ta'limning amaliy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Vygotskiy L.S. Myshleniye i rech' (Fikrlash va nutq). Moskva: Labirint, 1999. 352 b.
2. Bruner J.S. The Process of Education. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960. 97 p.
3. Ausubel D.P. Educational Psychology: A Cognitive View. New York: Holt, Rinehart and Winston, 1968. 685 p.
4. Dewey J. How We Think. Boston: D.C. Heath and Company, 1910. 224 p.
5. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. London-New York: Routledge, 2009. 378 p.
6. Marzano R.J. The Art and Science of Teaching: A Comprehensive Framework for Effective Instruction. Alexandria, VA: ASCD, 2007. 221 p.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, fevral

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 3-son (fevral, 2026-yil). – 121 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 12-fevral

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.